

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



TURKIYA TASHQI SIYOSATINING KONSEPTUAL HUQUQIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY JIHATLARI

Adhamjon Mamadjonov

Tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiya Respublikasi, tashqi siyosat, Takrira-i sukun, Misaqi milliy, Adolat va taraqqiyot partiyasi, diplomatiya, yumshoq kuch, Turkiy davlatlar kengashi, TIKA, TURKSOY, Diyanet, Turkriy dunyo konsepsiyasi, xalq diplomatiyasi, madaniy diplomatiya.

Annotatsiya: Tez o'zgaruvchan va murakkab globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat yondoshuvlarining o'zgarishlar mahsuli sifatida paydo bo'lgan pragmatik tashqi siyosat, bugungi kunda siyosiy va harbiy nizolarning ortib borishi bilan yanada muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shu nuqtai nazardan rivojlangan mamlakatlar tashqi siyosatni amalga oshirishda turli zamonaviy yondoshuv va konsepsiyalardan foydalanishga e'tibor qaratmoqdalar.

Maqolaning obyekti sifatida Turkiya tashqi siyosati tanlab olingan bo'lib, predmet sifatida uning konseptual huquqiy asoslari, zamonaviy jihatlari, ustuvor yo'nalishlari hamda strategiyalari belgilab olingan.

Shuningdek, zamonaviy Turkiya tashqi siyosatining Turk dunyosiga qaratilgan strategiyasi, asosan Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlaridagi joylashgan turkiyzabon davlatlarga nisbatan amalda qo'llayotgan madaniy va xalq diplomatiyasi ham tadqiqotda ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida Turkiya xalq diplomatiyasi Turk dunyosi munosabatlarida alohida o'rni borligi ochib berilgan. Bundan tashqari, maqolada tashqi siyosat va diplomatiyaning samarali ta'siri hamda tashqi siyosatni amalga oshirishdagi yumshoq kuch vositasining istiqbollari borasida nazariy fikrlar ilgari surilgan.

CONCEPTUAL LEGAL BASIS AND MODERN ASPECTS OF TURKEY'S FOREIGN POLICY

Adhamjon Mamadjonov

PhD student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Republic of Turkey, foreign policy, Takrir-i sukun, Misaqi milliy, Justice and Development Party, diplomacy, soft power, Council of Turkish States, TIKA, TURKSOY, Diyanet, Turkish world concept, public diplomacy, cultural diplomacy.

Abstract: Pragmatic foreign policy, which emerged as a product of changes in international relations and foreign policy approaches in the conditions of fast-changing and complex globalization, has become more important today with the increase of political and military conflicts. In this regard, developed countries are paying attention to the use of various modern approaches and concepts in the implementation of foreign policy.

The foreign policy of Turkey was selected as the main object of the article, and its conceptual legal foundations, modern aspects, priorities, and strategies were defined as the subject.

Also, the strategy of modern Turkey's foreign policy aimed at the Turkic world, the cultural and public diplomacy it uses in practice about the Turkic-speaking countries located mainly in Central Asia and the Caucasus, were also considered in the study. During the research, it was revealed that Turkish public diplomacy has a special place in the relations of the Turkic world. In addition, the article presents theoretical ideas about the effective influence of foreign policy and diplomacy, as well as the prospects of the soft power tool in the implementation of foreign policy.

КОНЦЕПТУАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ

Адхамжон Мамаджонов

Докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Республика Турция, внешняя политика, тақрири суқун, Мисақи милли, Ҳалқароий эътибор ва дипломатия, ялғиз қудрат, Кўчманчилик, Туркия дунё концепти, давлат дипломатияси, маданий дипломатия.

Аннотация: Прагматичная внешняя политика, возникшая из-за изменений самой природы международных отношений и внешнеполитических подходов в условиях глобализации, сегодня приобретает огромное значение в связи с ростом в мире политических и военных конфликтов. В связи с чем развивающиеся страны взяли на использование

государств, ТИКА, ТЮРКСОЙ, Диянет, концепция тюркского мира, народная дипломатия, культурная дипломатия.

различные новые подходы и концепций в осуществлений своей внешней политики. Поэтому в качестве объекта статьи мы выбрали внешнюю политику Турции, а в качестве предмета определили концептуально-правовые основы, современные аспекты, приоритеты и стратегии ее внешней политики. Также в исследовании было определено что стратегия современной внешней политики Турции, в основном направлена на тюркские народы, по отношению которым он использует культурную и народную дипломатию, в связи с близостью с ними из-за того что они также являются тюркоязычными странами, расположенными преимущественно в Центральной Азии и на территории Кавказа. В ходе исследования также выявлено, что народная дипломатия Турции занимает особое место во взаимоотношениях тюркских народов. Кроме этого, в статье проанализированы теоретические представления о перспективах и эффективном влиянии в качестве инструмента внешней политики, мягкой силы и дипломатии.

KIRISH

Turkiyaning zamonaviy tashqi siyosiy faoliyati tadqiqini amalga oshirish davomida dastlab tashqi siyosat tushunchasiga ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb pisoblanadi. Tashqi siyosat – kategoriyasini xalqaro munosabatlar tizimisiz tasarruf etib bo'lmaydi, chunki xalqaro munosabatlar tizimi uning asosiy ishtirokchilari hisoblangan davlatlarning tashqi siyosati doirasida shakllanadi. Tashqi siyosat muayyan bir davlatning boshqa davlatlar bilan aloqalari, xalqaro maydondagi ehtiyoji va manfaatlari ro'yobga chiqishini ta'minlovchi vositadir¹.

Tashqi siyosat – davlatning xalqaro munosabatlar va tashqi siyosiy faoliyatida xalqaro huquq normalariga asoslangan hamda o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib boradigan siyosiy jarayon. Biroq, davlat tashqi siyosat konsepsiyasini tushuntirish ancha mushkul ish, sababi bir davlat tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada barcha uchun qabul qilishi mumkin bo'lgan universal xarakterga ega oltin standartlik mavjud emas. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib davlatning siyosiy elitasi va yetakchilari hamda tashqi siyosat bilan shug'ullanuvchi olimlar yaratiladigan konsepsiyani o'zlarining nazariy modellari asosida belgilaydilar.

Bir tomondan, tashqi siyosat bu jarayon tomonidan yaratilgan reja, strategiya, harakat va yo'nalishlar sifatida ko'rilsa, ikkinchi tomondan jarayonning o'zi sifatida qoraladi. Muxtasar qilib qilib aytganda, tashqi siyosat hukumatning tashqi dunyo uchun amalga oshiradigan siyosatlarining yig'indisidir. Tashqi siyosatning yagona va asosiy subyekti davlatdir. Agar biz davlat uyushmalari yoki xalqaro tashkilotlar kabi subyektlar haqida so'z yuritilsa, bu xalqaro siyosat deb ataladi.

Sovuq urushdan keyingi davrgacha tashqi siyosat bizga real konsepsiya ko'rinishida yagona va eksklyuziv qaror qabul qiluvchi mexanizm sifatida taqdim etilgan, bunda jarayon

¹ D.Sayfullayev., O'zbekiston Respublikasi diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanish tarixi (1991-2016)., Monografiya 189-b. Toshkent Muharrir nashriyoti, 2018. B.11.

o'zining suveren vakolatlaridan tashqari sohalarga nisbatan rejalashtiradigan va amalga oshiradigan strategiyalar majmui kabi ko'rinishini ta'kidlaydi.

Sovuq urushdan so'ng, realistik fikrdan farqli ravishda tashqi siyosat va ichki suverenitet o'rtasidagi tafovutlar pasaya boshladi va ular bir-biriga yaqinlashib, doimiy ta'sir o'tkazadigan va bir-birini to'ldiruvchi jarayonga aylandilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Maqolani yozishda ushbu mavzu yuzasidan tadqiqot olib borgan bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari va adabiyotlariga murojaat qilindi. Jumladan, Turkiya tashqi siyosati, uning shakllanish tadriji, konseptual huquqiy asoslari hamda uni amalga oshirish usullari va vositalari borasida tadqiqot olib borgan A.Qosimov, M.Muhammadsiddiqov, H.Azimov, M.Abdurazzoqova, N.Qosimova, A.Jalilov D.Madaminova, S.Bo'ronov va S.Jo'rayev kabi mahalliy olimlar ishlaridan foydalanildi. Shuningek, xorij olimlaridan Ali Balci, Tevfik Rüştü Aras, Yücel Bozdağlıoğlu, Kadir Sancak, Mehmet Seyfettin Erol, Yavuz Gürler kabi turk tadqiqotchilarining o'rganilayotgan muammoga doir ishlari tashkil etadi. Shuningdek, maqolada rus tadqiqotchilaridan, V.A.Avatkov va A.I.Zubkova kabi olimlarning ilmiy ishlariga murojaat qilindi. Qolaversa, Turkiya Respublikasi tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti, davlat rahbarlari va siyosiy arboblarning nutq va ma'ruzalari hamda bayonotlaridan foydalanildi.

TADQIQOTNING USULLARI

Maqolada tarixiy tadqiqot, qiyosiy-siyosiy tahlil, kontent, event kabi tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Turkiyaning tashqi siyosati turli tarixiy, geosiyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida shakllangan murakkab va dinamik tuzilmadir. Zamonaviy Turkiya tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini tushunish ushbu mavzu atrofidagi akademik fikrni chuqur o'rganishni talab qiladi.

Xalqaro munosabatlar bo'yicha olim Ömer Göksel İşyarning fikricha, "Turkiyaning ko'p qirrali tashqi siyosati uning tarixiy merosi, geografik joylashuvi va global ta'sirga ega mintaqaviy kuchga aylanish intilishlarining aksidir"². Ushbu tezisda Turkiyaning xalqaro maydondagi murakkab va nizoli masalalarni hal qilishda nozik yondashuviga e'tibor qaratilib, uning tarixiy qadryatlari va geografik sharoiti alohida ta'kidlangan.

Dastlab Otaturk qarashlari bilan yo'g'rilgan g'arbona tashqi siyosat keyinchalik liberal qarashlar bilan to'ldirildi va ko'p vektorlilik jozibasini oldi. Respublika tashkil etilishining dastlabki davrida tashqi siyosat yo'nalishi g'arb, ya'ni Yevropaga qaratilgan bir tomonlama ko'rinish kasb etgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushi arafasi va urush davrida Turkiyaning betaraf siyosati Otaturk va Inonu shaxslari bilan bog'lanadi³. Ikkinchi jahon urushi davrida biror tomonda turib urush harakatlarida faol ishtirok etishni istamagan Turkiya, yaqin o'tmishda qabul qilgan noto'g'ri qarorini unutmagan va uning badalini to'lashga ulgurmagan, ichki hamda tashqi siyosiy barqarorlikka erishmagan edi. Bundan tashqari mamlakat iqtisodiy holati, ijtimoiy beqarorliklar bartaraf etilmagan sharoitda tashqi siyosat olib borishda keskin choralar qo'llamaslik Anqara uchun eng maqbul yo'l edi.

² Ömer Göksel İşyar., Türk Dış Politikası -Sorunlar ve Süreçler., İstanbul. 2021. S-45.

<https://dorayayincilik.com.tr/kitap-turk-dis-politikasi--sorunlar-ve-surecler--383.html>

³ DIŞ POLİTİKA KRİZLERİNDE İSTİHBARATIN ROLÜ: SANCAK KRİZİ ÖRNEĞİ.,

https://www.researchgate.net/publication/379220884_DIS_POLITIKA_KRIZLERINDE_ISTIHBARATIN_ROLU_SANCAK_KRIZI_ORNEGI

Ikkinchi jahon urushi tugashi arafasida Turkiya dunyoda tashkil etilishi kutilayotgan yangi tartibotda o'z o'rniga ega bo'lish uchun g'olib davlatlar tarafida turishni afzal ko'rdi va dastlab G'arbiy Yevropaga yo'naltirilgan tashqi siyosat kursi endi uning muqobili sifatida AQSHga tomon o'zgartirdi. Aytish joizki Mustafa Kamol boshchiligidagi milliy harakat vakillari dastlab SSSR yordamida bir qancha yutuq va natijalarga erishgan bo'lsada, biroq sovet mafkurasi tahdidi hamda nodemokratik qarashlarning xavfi, Otaturk va uning tarafdorlarini hamkorlikni davom ettirmasligiga sababi bo'ldi.

Turkiyaning 1952-yilda g'arb kaolitsiyasi hisoblangan NATOga qo'shilishi Respublika tashqi siyosatining tub burilish nuqtasi bo'ldi⁴. Alyansga a'zolik yo'lida bir qancha ichki islohotlarning amalga oshirilganligi hamda Koreya urushida ishtirok etish uchun askar yuborganligi tashqi siyosatda g'arbga burilish nuqtasini yanada konkretlashtirdi. Biroq, bu davrda qabul qilingan bir nechta qarorlarning millat majlisida muhokama etilmaganligi va Adnan Menderesning shaxsiy tashabbuslari tufayli amalga oshirilganligi tashqi siyosat kursiga ta'sir o'tkazadi. Albatta, AQShdan olinayotgan iqtisodiy yordam to'xtab qolmasligi uchun harakat qilish omili ham Menderesning bunday qarorlar qabul qilishiga sabab bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan omillar tufayli Adnan Menderes hokimiyatdan chetlashtiriladi va harbiylarning siyosiy hokimiyatga chiqishi yuz beradi. Shu sababdan, 1970-yildan to Adolat taraqqiyot partiyasi 2001-yil hokimiyatga kelgunga qadar bo'lgan davr mobaynida ham ichki, ham tashqi siyosatda harbiylarning aralashuvi va ba'zi davrlarda ularning mutlaq hokimiyati hukm suradi.

Sovuq urush yakunidan so'ng, Turkiya zamonaviy tartibotda o'z o'rniga ega bo'lish uchun tashqi siyosat konsepsiyasini qaytadan ishlab chiqish va ta'sir vositalarining tarmog'ini kenagaytirish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Bunda asosiy shaxslar deb Turgut O'zal, Sulaymon Demirel, Najmaddin Erbakan, Ahmet Davuto'g'li va Rajjab Tayyib Erdogan kabi siyosiy yetakchilar asosiy ro'l o'ynaydi.

Turgut O'zal hokimiyatga kelishi tashqi siyosat yondoshuvlarida bir muncha o'zgarishlarga olib keldi, xususan uning davrida Turkiya bir vektorli tashqi siyosat kursidan ko'pqirrali tashqi siyosat olib borishni afzal ko'ra boshladi⁵.

Shuningdek, professor Ayshegul Sever "Turkiyaning turli aktorlar bilan strategik hamkorlikda ishtirok etishi uning mintaqaviy va global ta'sirini kuchaytirish maqsadining bir ko'rinishidir", deb o'z qarashlarni bayon etadi⁶. Ushbu qarashida tadqiqotchi, Respublikaning AQSh, Yevropa Ittifoqi, Rossiya va Yaqin Sharq kabi yirik davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirish orqali Turkiya o'zini strategik jihatdan geosiyosiy landshaftni shakllantirishda va markaz davlat ro'lida asosiy o'yinchi sifatida barqarorlashishiga e'tibor qaratadi.

Doktor Barış Özdal ko'p tomonlamalik sohasida Turkiyaning xalqaro tashkilotlardagi rolini global muammolarni hal qilish va hamkorlikni mustahkamlash vositasi sifatida ta'kidlaydi. Barış Özdal "Turkiyaning NATO va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi forumlarda faol ishtirok etishi uning ko'p tomonlamalik va jamoaviy xavfsizlikka sodiqligini ko'rsatib, bu orqali yanada barqaror va xavfsiz dunyo tartibiga hissa qo'shayotgani"ni ta'kidladi⁷.

Turkiya tomonidan ko'rsatilayotgan insonparvarlik va qochqinlar yordami uning insonparvarlik inqirozlari va ko'chirilgan aholini vasiylikka olishda sodiqligini aks ettiradi.

⁴ Ali Balici. Türkiye Dış Politikası: İlkeler, Aktörler, Uygulamalar, Etkileşim Yayınları, İstanbul, 2013. S-238.

⁵ Ali Balici. Türkiye Dış Politikası: İlkeler, Aktörler, Uygulamalar, Etkileşim Yayınları, İstanbul, 2013

⁶ Ayşegül Sever: "Türkiye'de Ortadoğu Çalışmalarının 10 Yıllık Muhasebesi", <https://ordaf.org/aysegul-sever-10-yillik-muhasebe/>

⁷ Barış Özdal., Uluslararası göç ve nüfus hareketleri bağlamında Türkiye., Bursa, 2021.

Tadqiqotchi Elif Kalayjio'g'li, Turkiyaning muhtoj davlatlarga yordam berishga qaratilgan sa'y-harakatlari va suriyalik qochqinlar inqirozini boshqarishdagi muhim roli, uning insonparvarlik qadriyatlari va global muammolarga proaktiv yondashuvini ta'kidlaydi⁸.

Turkiyaning energiya resurslarini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy ta'sirini kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlari uning energetika diplomatiyasida o'z aksini topadi. Muxtasar qilib aytadiganda, Turkiyaning zamonaviy tashqi siyosati mintaqaviy va global barqarorlikni qo'llab-quvvatlagan holda o'z milliy manfaatlarini ilgari surish uchun diplomatiya, hamkorlik va strategik sheriklik elementlarini o'z ichiga olgan ko'p qirralidir. Bugungi kunda Turkiya betaraflik, vositachilik, strategik sheriklik va gumanitar yordam tamoyillariga amal qilgani holda xalqaro vaziyatning murakkabliklarini noziklik va faol yondashuv yordamida yengib chiqmoqda.

Quyida keltirilgan jadvalda Turkiya tashqi siyosatining rivojlanish tendensiyalari va undagi asosiy ishtirokchilar haqida ma'lumot beriladi.

Siyosiy davr	Xalqaro munosabatlar tizimi	Turkiya iqtisodiyoti va siyosati	Asosiy qaror qabul qiluvchi shaxslar	Tashqi siyosatning yo'nalishlari
1919-1939	Ikkita jahon urushi oralig'i davri. Yevropaning bo'linishi (ittifoqchilar va o'qlar), Jahon iqtisodiy inqirozi	1919-1923; 1923-1938 yillardagi mustaqillik urushi; Otaturk davri, islohotlar, avval liberal, keyin davlatchilik iqtisodiyoti	Mustafa Kamal Atatürk (Prezident)	1919-1923; To'liq mustaqillikka erishish, 1923-1939; Lozannadan keyin qolgan muammolarni hal qilish (Mosul, Xatay, Bo'g'ozlar), G'arb tashqi siyosati, mintaqaviy xavfsizlikni izlash (Bolqon pakti, Sadabod pakti)
1939-1945	Ikkinchi Jahon urushi dunyoning bo'linishi (ittifoqchilar – ikki qutblilik)	Iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishining inqirozi, qora bozor, mol-mulk solig'i, avtoritar bir partiyaviy boshqaruv	İsmet İnönü (Prezident)	Ittifoqchilarni hafa qilmaslik, Sovet Ittifoqi va Germaniyani qo'llamasdan urushdan chetda turmoq
1945-1960	Sovuq urushning birinchi qismi, yadroviy raqobat, Yevropa va dunyoning bo'linishi (G'arbiy blok, Sharqiy blok)	Urushdan keyingi iqtisodiy rivojlanish, rejadan tashqari rivojlanish va iqtisodiy inqiroz, ko'ppartiyaviylik tartibiga o'tish, Demokratik partiya hukumati (1950-1960)	Menderes va Zorlu (Prezident va Tashqi ishlar vazirligi)	G'arbiy blokga qo'shilish va NATOga a'zolik (1952), AQShning Yaqin Sharq siyosatini qo'llab-quvvatlash (Bag'dod pakti) Kipr muammosining paydo bo'lishi (1955)

⁸ Kadir Sancak, Nihat Yılmaz. Vision Change and Foreign Supports in Turkey's Foreign Policy., The Journal of International Scientific Researches., 2018, 3(2)., <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/464841>

				va undan keyin)
1960-1980	Yengillik davri, AQSHning nisbatan zaiflashishi, SSSR ta'sirining qo'shni mamlakatlarda kuchayishi	Rejali iqtisodiyot, 70-yillarning boshlarigacha bo'lgan rivojlanish, tashqi siyosatning yumshatilish davri, keyin iqtisodiy inqirozlar, 24 yanvar Qarorlar, koalitsion hukumatlar, hukumatlar, intervensiyalar.	Tashqi siyosatning munozarali sohaga aylanishi, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar va jamoatchilikning ta'siri	AQSh bilan munosabatlarni sovetlash, tashqi siyosatni diversifikatsiya qilish (Yaqin Sharq, SSSR va EEK bilan munosabatlarni mustahkamlash) va Kipr muammosini asosiy tashqi siyosat muammosiga aylantirish.
1980-1990	Ikkinchi Sovuq Urush davri, AQSh o'z kuchini qaytadan oshirishi, SSSRning zaiflashishi	Turgut O'zalning iqtisodiy islohotlari orasida erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish, 12-sentabr davlat to'ntarishi va turk-islom sintezi kiradi.	Turgut O'zal (Prezident) va ishbilarmon doiralar	AQSh bilan munosabatlarning qayta tiklanishi, Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarning sovuqlashishi, Yaqin Sharqdagi inqirozlar (Eron-Iroq urushi)
1990-2001	Sovuq urushdan keyingi davr, "Tarix intixosi va sivilizatsiyalar to'qnashuvi" bahslari	Iqtisodiy inqirozlar, siyosiy beqarorlik, siyosiy islomning kuchayishi va armiyaning aralashuvi (28 fevral voqealari)	Turk Qurolli Kuchlarining ta'siri kuchayishi	AQSh bilan mustahkam aloqalar, hamkorlik va mojaroning yangi yo'nalishlari (Bolqon, Kavkaz, Markaziy Osiyo), Yevropa Ittifoqiga yo'naltirilganlik, Yaqin Sharqdagi inqirozlar (Ko'rfaz urushi, PKK va Shimoliy Iroq muammosi)
2001-2017	11-sentabr xurujlari, terrorizmga qarshi urush	Iqtisodiy tiklanish, AKPning yagona partiya boshqaruvi, demokratiklashuv jarayoni	R.T.Erdogan va A.Davuto'g'lining ta'siri (bosh vazir va tashqi ishlar vaziri)	AQSH bilan munosabatlar, dastlab to'liqlik (1-mart memorandum) va keyin rivojlanib borayotgan Turkiyaning mintaqaviy kuch bo'lish da'vosi (namunali davlat, yumshoq kuch, neousmanizm muhokamalari), g'arbdan tashqari

				dunyo bilan aloqalarni rivojlantirish.
2017 - yildan keyingi davr	Pandemiya va postpandemiya sharoiti, Ukraina inqirozi, Isroil-falastin mojarosi	Iqtisodiy yuksalish, Prezidentlik boshqaruvi, demokratik jamiyatdan fuqarolik jamiyatiga tomon harakat	R.T.Erdogan (Prezident)	Mintaqaviy kuchdan Global kuchga tomon harakat, Sharqqa burilish, Turkiy dunyo yaratishda yetakchilik, Inqirozlarni hal etishda vositachilik

(Şaban Kardaş; Ali Balcı, Uluslararası İlişkilere Giriş, Küre Yayınları, İstanbul 2014, s. 68)⁹

Yuqorida keltirilgan jadvalda Turkiya Respublikasining zamonaviy tashqi siyosati yaqin o'tmishidan keskin farq qilmaydi, ammo bir qancha qo'shimchalar bilan to'ldirilgan. Mustaqil tashqi siyosat olib borish uchun harakatdan boshlangan harakat XX asr o'rtalarida o'zini namoyon etib betaraflik ko'rinishiga ega bo'lgan bo'lsa, asr oxirlariga kelib mintaqaviy kuch sifatida namoyon bo'lib ulguradi.

Professor Nevzat Tekneci ta'kidlashicha, neytrallik va aralashmaslik Turkiya tashqi siyosat strategiyasining markaziy tamoyillari hisoblanadi. Nevzat Tekneci, "Turkiyaning betaraflik va aralashmaslik majburiyatlari mintaqada barqarorlikni saqlash va xalqaro normalarga hurmat ko'rsatishga qaratilgan sa'y-harakatlarining asosi bo'lib xizmat qiladi"¹⁰, kabi fikrlarini bildiradi. Mojarolarni muloqot orqali tinch yo'l bilan hal qilish bo'yicha ushbu majburiyat an'anaviy diplomatik tamoyillarga mos keladi va Turkiyaning tinchlik va hamkorlikni rivojlantirishdagi faol pozitsiyasini ta'kidlaydi. Bugungi kunda Sharqiy O'rta yer dengizi, Bolqon va hatto Yaqin Sharq hududida asosiy so'z aytuvchi davlatga aylanib ulgurdi. Zamonaviy Turkiya tashqi siyosatining tahlilini amalga oshirishda quydag bir necha xulosalarga kelindi.

XULOSA

Zamonaviy Turkiya Respublikasining tashqi siyosati tinchlik, diplomatiya va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Turkiya tarixan yaqin qo'shnilari va xalqaro hamjamiyat bilan iliq munosabatlarni rivojlantirishga asoslangan ko'p qirrali tashqi siyosat olib bormoqda. Turkiyaning zamonaviy tashqi siyosatining asosiy jihatlari deb quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, betaraflik va aralashmaslik siyosati, bunda Turkiya mintaqaviy va xalqaro mojarolarda betaraf pozitsiyani saqlab qolishni maqsad qiladi, biroq bir vaqtning o'zida mavjud nizolarni diplomatiya va muloqot orqali tinch yo'l bilan hal qilishga vositachilik rolini taklif etadi.

Ikkinchidan, Strategik hamkorlik siyosati, ushbu siyosat orqali Turkiya asosiy global va aksar mintaqaviy kuchlar, jumladan, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Rossiya va Yaqin Sharq hamda

⁹ Mustafa Serdar Palabıyık, "Uluslararası Sistemde Türkiye", (der. Şaban Kardaş; Ali Balcı, Uluslararası İlişkilere Giriş, Küre Yayınları, İstanbul 2014, s. 68). 2014. S.68.

¹⁰ Nevzat Tekneci., Türk dış politikasında tarafsızlık.,

https://www.academia.edu/25123790/T%C3%9CRK_DI%C5%9E_POL%C4%B0T%C4%B0KASINDA_TARAFSIZLIK

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan strategik sheriklik o'rnatish va ularni qo'llab-quvvatlashga intilmoqda.

Uchinchidan, Tashqi siyosatda ko'pqirrali diplomatiya tamoyilini amalga oshirgani holda, Turkiya global muammolarni hal qilish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti, NATO va Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar forumlarida faol ishtirok etmoqda.

To'rtinchidan, Gumanitar yordam va qochqinlarga ko'mak siyosati orqali Turkiya gumanitar inqirozlarga javob sifatida muhtoj bo'lgan mamlakatlar va mintaqalarga yordam qilmoqda xususan, Suriya mojarosini hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Beshinchidan, Energiya diplomatiyasi siyosati, bunda Turkiya diplomatik hamkorlik va energetika infratuzilmasini, jumladan, quvur liniyasi loyihalarini rivojlantirish orqali energiya resurslarini diversifikatsiya qilishga va energiya xavfsizligini mustahkamlashga intiladi.

Oltinchidan, Iqtisodiy diplomatiya, iqtisodiy munosabatlarda teng sheriklikka asoslangan hamkorlik orqali Turkiya boshqa davlatlar va mintaqalar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantiradi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va xorijdagi iqtisodiy ishtirokini kengaytirishga faol intiladi.

Yettinchidan, Mintaqaviy ta'sirni kengaytirish va mustahkamlash siyosati, Turkiya o'zining yaqin qo'shnilarida, ayniqsa Yaqin Sharq va Sharqiy O'rtayer dengizida o'z ta'sirini kuchaytirishni va mintaqaviy muammolarni hal qilishda faol rol o'ynashni maqsad qiladi.

Sakkizinchidan, Global kuch siyosatini amalga oshirish Turkiya tashqi siyosating zamonaviy bosqichida ishlab chiqilgan bo'lib, bunda asosan "Dunyo beshdan katta", "Afroyevrosiyo" kabi konsepsiyalarni ishlab chiqish orqali o'zining global kuchga aylanishini amalga oshirishni maqsad qiladi. Turkiya avvalgidek, jahon siyosatining asosiy so'z aytuvchi davlatlari qatorida bo'lishga intilishi va davolari ushbu siyosat orqali yaqqol namoyon bo'ladi.

Muxtasar qilib aytganda, Turkiyaning tashqi siyosati ichki va tashqi barqarorlik, iqtisodiy o'sish va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ayni paytda tez o'zgarib borayotgan global manzarada birinchi o'rinda o'z milliy manfaatlarini ilgari suradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sayfullayev D. O'zbekiston Respublikasi diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanish tarixi (1991-2016)., Monografiya 189-b. Toshkent Muharrir nashriyoti, 2018. B.11.
2. Ali Balici. Türkiye Dış Politikası: İlkeler, Aktörler, Uygulamalar, Etkileşim Yayınları, İstanbul, 2013.
3. Ahmet Davutoğlu. Stratejik Derinlik: Türkiye'nin Uluslararası Konumu
4. Yücel Bozdağlıoğlu, Turkish Foreign Policy and Turkish Identity: A Constructivist Approach, New York & Londra, Routledge, 2003.
5. Checkel Jeffrey., "Constructivism and Foreign Policy", Foreign Policy: Theories, Actors, Cases, Ed. Steve Smith, Amelia Hadfield, Tim Dunne, Oxford, New York, Oxford University Publishing, 2008, pp. 71-82. (30.03.2024.,foydalanildi)
<https://doi.org/10.1093/hepl/9780198708902.001.0001>
<https://www.oxfordpoliticstrove.com/display/10.1093/hepl/9780198708902.001.0001/hepl-9780198708902>
6. Иванова И.И., Эволюция ближневосточной политики Турецкой Республики в XX–XXI вв. / Под ред. А.В. Штанова; МГИМО МИД России. — М.: Издатель Воробьев А.В., 2019. — 380 с.

7. Гулиев И.А., Оздемир В. Современное состояние газовой отрасли России: роль соседних стран и Турции во внешней энергетической политике // Проблемы экономики. 2022. № 1. С. 104-112.
8. Оздемир В., И.А.Гулиев., Энергетическая дипломатия Турции. Турция в мировой политике и экономике., 2014. № 1. С. 101-108.
<https://cyberleninka.ru/article/n/energeticheskaya-diplomatiya-turtsii>
9. Türkiye Cumhuriyeti Dışışleri Bakanlığı., Türkiye'nin uluslararası enerji stratejisi., <https://www.mfa.gov.tr/turkiyes-energy-strategy.ru.mfa>
10. Ömer Göksel İşyar., Türk Dış Politikası -Sorunlar ve Süreçler., İstanbul. 2021. S-45.
<https://dorayayincilik.com.tr/kitap-turk-dis-politikasi--sorunlar-ve-surecler--383.html>
11. DIŞ POLİTİKA KRİZLERİNDE İSTİHBARATIN ROLÜ: SANCAK KRİZİ ÖRNEĞİ., https://www.researchgate.net/publication/379220884_
12. Ali Balici. Türkiye Dış Politikası: İlkeler, Aktörler, Uygulamalar, Etkileşim Yayınları, İstanbul, 2013. S-238.
13. Ali Balici. Türkiye Dış Politikası: İlkeler, Aktörler, Uygulamalar, Etkileşim Yayınları, İstanbul, 2013
14. Ayşegül Sever: “Türkiye’de Ortadoğu Çalışmalarının 10 Yıllık Muhasebesi”., <https://ordaf.org/aysegul-sever-10-yillik-muhasebe/n>
15. Barış Özdal., Uluslararası göç ve nüfus hareketleri bağlamında Türkiye., Bursa, 2021.
16. Kadir Sancak, Nihat Yılmaz. Vision Change and Foreign Supports in Turkey's Foreign Policy., The Journal of International Scientific Researches., 2018, 3(2)., <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/464841>
17. Mustafa Serdar Palabıyık, “Uluslararası Sistemde Türkiye”, (der. Şaban Kardaş; Ali Balcı, Uluslararası İlişkilere Giriş, Küre Yayınları, İstanbul 2014, s. 68). 2014. S.68.
18. Nevzat Tekneci., Türk dış politikasında tarafsızlık.,
19. https://www.academia.edu/25123790/T%C3%9CRK_DI%C5%9E_POL%C4%B0T%C4%B0K_ASINDA_TARAFSIZLIK